



THE PHILOSOPHICAL ESSENCE AND PLACE OF THE CONCEPT OF CONSENSUS: A METHODOLOGICAL ANALYSIS

Kholidakhon Rakhmatova

Professor, Doctor of Philosophy (DSc)
Bukhara State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Bukhara

ABOUT ARTICLE

Key words: Khodja Akhror Vali, mysticism, enlightened society, patience, gratitude, suhbat, humanity, value of time, compromise, nafs, self-awareness.

Received: 10.05.25

Accepted: 12.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: The article studies the concepts characteristic of compromise according to the teachings of Naqshbandiy of self-awareness, suhbat, self-discipline, nafs, shukr, sabr, zikr and their significance in the conditions of New Uzbekistan, reveals the service to the stability of social, spiritual and educational processes, their significance in the development of the ideological immunity of the mature generation, in the formation of an enlightened society.

MUROSA TUSHUNCHASINING FALSAFIY MOHIYATI VA O'RNI: METODOLOGIK TAHLIL

Xolidaxon Raxmatova

falsafa fanlari doktori(DSc), professor
Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbekiston, Buxoro

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: murosa, madora, Xoja Ahror Valiy, tasavvuf, ma'rifatli jamiyat, sabr, shukr, suhbat, insoniylik, vaqt qadri, murosayu madora, kompromiss, nafs, o'zlikni anglash, barqaror taraqqiyot, mafkuraviy immunitet.

Annotatsiya: Maqolada murosa tushunchasining falsafiy mohiyati va o'rni metodologik tahlil qilingan, Naqshbandiya ta'limotidagi murosaga xos bo'lgan o'z-o'zini anglash, suhbat, nafsn tarbiyalash, kibrni yo'qotish, shukronalik, sabr, zikr, fikr va faqr kabi g'oyalari Yangi O'zbekiston sharoitida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning barqaror bo'lishidagi xizmati, bularning ma'rifatli jamiyatni barpo etishda barkamol avlod mafkuraviy immunitetini tarbiyalashdagi ahamiyati ochib berilgan.

ФИЛОСОФСКАЯ СУТЬ И МЕСТО КОНЦЕПЦИИ КОНСЕНСУСА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Холидахон Рахматова

Доктор философских наук (DSc), Профессор

Бухарский государственный педагогический институт

Узбекистан, Бухара

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ходжа Ахрор Вали, суфизм, просвещенное общество, терпение, благодарность, сухбат, человечность, ценность времени, компромисс, нафс, самосознание, идеологический иммунитет.

Аннотация: В статье изучается характерные для компромисса понятия по учению Накшбандия самосознания, сухбат, самодисциплины, нафс, шукр, сабр, зикр и их значение в условиях Новый Узбекистан, раскрывается служение стабильности социальных, духовных и образовательных процессов, их значение в развитии идеологического иммунитета зрелого поколения, в формировании просвещенного общества.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun xalqimiz murosayu madorada yashashi muhim ahamiyat kasb etadi. Murosa falsafasining asosiy kategoriyalari – tushunchalariga tayanib murosa falsafasining mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Bunda dialektik, sinergetik, germenevtik va metafizik yondashuvlar asosida murosa tushunchasini metodologik tahlil etish lozim. Ilmiy nuqtai nazardan, har qanday atama yoki tushunchaning ta’rifi va tavsifida u ifodalaydigan mazmun-mohiyat va o‘ziga xos jihatlar aks etishi ma’lum. “Murosa” atamasi ham bundan mustasno emas.

Murosa tushunchasi ijtimoiy falsafaning asosiy kategoriyasi bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarga xos xususiyatdir. Murosa atamasining qaysi tildan olinganligi munozarali masala bo‘lmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki turli lug‘atlarda bu so‘zning qaysi tildan olinganligi turlicha yozilgan.

Murosa (مسلمانة arabchadan) bir-biridan rozilik, o‘zaro kelishish, o‘zaro kelishuvli munosabat, kelishuv degan ma’noni anglatadi,[1; 304]- degan fikrlar keltirilgan. Biroq manbashunos olim B.Namozov, Buxorodagi Miri Arab madrasasining katta o‘qituvchisi Asrorxon Mahmudov bilan bo‘lgan suhbatlarimizda, ustozlar arab tilidagi lug‘atlarda mazkur termin boshqa ma’noni, ya’ni “suzishda g‘olib chiqish” degan ma’noni kasb etishi haqidagi fikrni bildirdilar.

“**Madora**” (مادر) degan arab tilidagi so‘z esa, boshqalarga nisbatan lutf bilan munosabatda bo‘lish, o‘zaro kelishib yashash ma’nosida qo‘llaniladi. Shu ma’noda murosayu madora deb birgalikda qo‘llanilishi va mazkur birikma kelishish degan ma’noni anglatishidan

dalolat beradi. Fikrimizcha, O‘rta Osiyoda o‘tmishda ko‘proq arab yozuvida, forsiy tillarda asarlar yozilganligi sababli forsiy va arab lug‘atlariga munosib ravishda murosayu madora shaklini olganligi ehtimoldan xoli emas.

Ilmiy adabiyotlarda, kishilar o‘zaro muloqotlarida, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan murosa atamasi kelishuv yoki kelishmaslik (murosasizlik) degan so‘zlar o‘rnida qo‘llanilib uning mazmun-mohiyati toraytirib qo‘yilgan. Bunday holat lug‘atlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 10 yilligi yubileyiga bag‘ishlab 1953 yilda nashr etilgan “ruscha-o‘zbekcha” lug‘atda “Kompromiss - hamkorlik, birlik, qo‘llab-quvvatlash, bir-biriga yon bosish, murosa” tarzida tarjima qilingan. 1973 yilda nashr qilingan “Ижтимоий терминлар лугати”да “Kompromiss – murosa” deb tarjima qilingan. G‘arb ilm-fani “komiromiss” so‘zi keng qamrovligini, ingliz tilining boyligini ko‘rsatib murosani kompromissning ichiga kirgizadi, aslida ma’no va mazmun jihatdan murosa kompromissga qaraganda sermazmun va mantiqiylik nuqtai nazaridan uni o‘z ichiga oladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistondagi Vakolatxonasi tomonidan nashr qilingan “O‘zbekistonda Mingyillik rivojlanish maqsadlari” maruzasining rus va ingliz tillaridagi matnida konsensus atamasi o‘zbek tilidagi matnda murosa deb tarjima qilingan. 1954 yilda nashr qilingan hamda 50000 so‘zni o‘zida mujassam etgan “Русско-узбекский словарь”da esa konsensus atamasi kiritilmagan,[2; 19]. Fikrimizcha, ko‘rsatilgan manbalarda o‘zbek tilidagi murosa atamasi mazmun-mohiyati, ta’sir doirasi nihoyatda toraytirilganligini ko‘rshimiz mumkin.

Tahlil va tadqiqot natijalari

O‘tish davrida ko‘pmillatli mamlakatda millatlararo murosa muhitini yaratish katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Mazkur muammo mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq hal etilishi dolzarb masala sifatida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatda yurt tinchligini ta’minlash va barqaror muhitni yaratish, millatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish ehtiyojlardan kelib chiqib uning nazariy asoslari ishlab chiqildi va amaliyatga faollik bilan joriy eta boshlandi[3;345]. Natijada mamlakatda ijtimoiy murosa muvozanat konsepsiysi dunyoga keldi.

Murosa atamasi o‘z mazmun-mohiyati, shakli jihatidan kompromiss, konsensus, ijtimoiy hamkorlik, yakdillik, kelishish, shartnoma kabi so‘zlarga qaraganda sermazmun, murakkab, keng qamrovli va ayni paytda mantiqiylik doirasida ularni o‘z ichiga sig‘diradi. Shularga asoslanib borliq, tabiat, jamiyat, inson faoliyatining turli jihatlarini, sohalarini, yo‘nalishlarini u yoki bu ko‘rinishda ifodalaydigan har qanday ijtimoiy hodisaga nisbatan murosa umumiyligini hamda genezisi nuqtai nazaridan oldin paydo bo‘lganligini bildiradi.

Murosa falsafasining asosiy tushunchalariga *rizo*, *o'zaro kelishish*, *o'zaro kelishuvli munosabat*, *kelishuv*, *kelishuvchilik*, *ijtimoiy hamkorlik*, *kompromiss*, *konsensus*, *ahillik*, *birdamlik*, *sog'lom raqobat*, *tinchlilik*, *osoyishtalik*, *diniy bag'rikenglik*, *milliy va millatlararo munosabatlarda totuvlik* kiradi. Murosaga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarga *ziddiyat*, *nizo*, *urush*, *janjal*, *adovat*, *kelishmaslik*, *konflikt*, *millatchilik*, *guruhbozlik*, *diniy va nosog'lom raqobat* kiradi. Bu tushunchalarning tahlili ko'rsatadiki, murosali hayot tarzi jamiyatning rivoji va taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qiladi. Murosasizlik jamiyat ahli o'rtasida norozilik va kelishmovchiliklarni chiqarib, jamiyat ravnaqiga g'ov bo'ladi.

Murosa shaxsning o'zida, shaxslararo, oilada, mahallada, qo'shnilararo, mehnat jamoalari, ijtimoiy hamkorlik jarayonida, millat, din, irq, jinslararo, davlat va shaxs, davlatlararo munosabatlarda namoyon bo'ladi. Murosa ziddiyatlarning eng maqbul yechimidir. Murosa holiga kelish uchun avvalo, inson o'zi-o'zi bilan murosaga kelishi kerak. Murosa – insoniy fazilat, chunki u faqat o'zini anglagan insonda bo'ladi. Insonda o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat etish, o'z-o'zidan hisob olish muntazam davom etadigan jarayon bo'lsa, inson me'yorda va murosada yashaydi.

Murosaning turlarini quyidagicha tasniflash mumkin: (qarang: 1.1-rasm)

1.1-rasm.



1.1-rasm. Murosa turlari

Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shaxslararo murosayu madorada yashash tarzining barqaror bo'lishi uchun, insonlar muloqot madaniyatini mukammal o'rgangan bo'lishlari lozim. Shaxslararo munosabatda eng katta g'ov kibr, manmanlik, hasad, nafrat kabi illatlar bo'lib, ular nafs asosida vujudga keladi. Nafshi tarbiyalash asosida shaxslararo murosani tartibga keltirish mumkin. Naqshbandiya ta'limotida bu suhbat uslubi asosida olib borilgan. Bahouddin Naqshband bu haqda "Tariqatimiz

suhbatdir, xilvatda shuhrat, shuhratda ofatdir”[4;18], - degan. Naqshbandiya tariqatidagi suhbatni ilohiy va insoniy suhbat turlariga bo‘lishimiz mumkin. Ilohiy suhbatlar muroqaba, muhosaba usulida namoyon bo‘ladi. Muroqaba - oriflarning ruhiy kamolot yo‘llaridan birinchisidir. “Bilginkim, muroqaba mushtoq bo‘lishdir. Muroqaba taraqqaba-intizor bo‘lmoq so‘zidan olingan. Bunda solik - Haq yo‘lidan borayotgan kishi o‘ziga xos hay’at bilan o‘tirib va Ollohdan keladigan fayzga intizor bo‘ladi. Shuning uchun uni muroqaba deb ataydilar”[5;42].

Muhosaba - har bir o‘tgan vaqtning hisobidir. Abdulxoliq G‘ijduvoniy yozadiki: “So‘radilarki, muhosaba nima? Muhosaba nafasni saqlashdir, toki u behuda o‘tmasin”[5;88]. Ko‘rinib turibdiki, Abdulxoliq G‘ijduvoniy nafas tushunchasi bilan vaqtini bir ma’noda ishlatgan. Naqshbandiya ta’limotidagi insoniy suhbat ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: individual, ya’ni shayx va murid o‘rtasida, jamoaviy suhbatdir.

Naqshbandiya ta’limotida suhbat jarayonini ijobiy bo‘lishi uchun suhbatdoshni tanlash masalasiga maxsus e’tibor berilgan. Chunki, hamnishinning ruhiyati, holati suhbatdoshiga ta’sir etadi. Mazkur suhbat uzoq muddatli ustoz-shogird va jamoada bo‘lgan taqdirda shaxsning holatiga ta’sir etadi. Shuning uchun tasavvufda ustoz tanlashga ham juda e’tibor berilgan. Xoja Ahror Valiy shaxslararo murosa fazilatlarini shakllantirishda suhbatning roli katta ekanligini ta’kidlaganlar”[6;39]. U kishi bu masalada Qur’on va Hadislarga, buyuk ajdodlar – Boyazid Bistomiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Hazrat Azizon – Xoja Ali Romitaniy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshbandlarning g‘oyalariga tayangan hamda ularning ta’limotini rivojlantirgan. Xoja Ahror “Anfosi Nafiysa” asarida yomon, nodon, axmoq hamsuhbatlardan qochish, ulardan uzoqda bo‘lish kerakligini uqtirgan. Yomon hamsuhbat inson kamoloti uchun juda zararli ekanligidan, Xoja Ahror Valiy uni ilondan ham battar deb ta’kidlagan:

Ba haqqi zoti poki Ollohu – s - Samad,

Beh buvad mori bad az yori bad.

Mori bad jon mesitonad az salim,

Yori bad orad so‘i nori jahim [6;39].

Mazmuni:

Ollohu – s - Samad zoti poki haqqi,

Yomon ilon yomon do‘stdan ko‘ra yaxshiroqdir.

Yomon ilon sog‘ odamning jonini oladi,

Yomon do‘st esa do‘zax olovi sari etadi.

Ilon zahridan sog‘ odam o‘lsa ham, lekin uning iyemoni butun qoladi. Ammo yomon hamsuhbat insonni iymondan ayirib, ikki oyoqli hayvonga mubaddal qilib, do‘zaxiy qiladi.

Shuning uchun Xoja Ahror Valiy yaxshilar, xususan sodiq-qalbi va tili to‘g‘ri insonlar suhbatdoshi bo‘lish kerak deydi. “Agar subhonahuning huzur maqomida shaytonning vasvasasiyu makridan ozod bo‘lishni xohlasang... senga lozimki, o‘zidan qutula olgan, dilu joni Zoti ta’oloning zikrida mustag‘riq bo‘lolan bir mard insonning yonida o‘tirgaysan, hamnishin bo‘lgaysan”[7;70].

Ahli sidq bilan davomli suhbat inson botinini ularning sifatlari va axloqlarining nurlaridan munavvar bo‘lishiga olib keladi. “Odamiyg‘a, ul jihatdinkim, hamnishinlaridin ta’siri tommg‘a iste’dod hosildur”[8;105], inson hamsuhbatiga uyg‘un quvvatni, ya’ni yaxshi yoki yomonni tortadi. Shuning uchun Xoja Ahror Valiy suhbat davomida inson o‘z musohibidan hozir va ogoh bo‘lishi, uni tanishi lozim degan.

Murosa – muammolarni tinch, hamjihatlikda hal qilish demakdir, ayniqsa, xotirjamlikni hamma narsadan ustun qo‘yib, jamiyatda, mahalla kuyda bunga riosa etish madaniyatini anglatadi. Demak, bu tushuncha jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeidan qat’i nazar, kishilarning bir makon, bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch-osoyishta yashashini ifoda etadi. Shu sababdan jamiyatimizning kelajagi bo‘lmish yoshlarning murosa madaniyati ilmiy doiralarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro munosabatlarning yangi mazmun kasb etishi, dunyoning turli burchaklarida turli ko‘rinishlardagi harbiy, siyosiy, ijtimoiy to‘qnashuvlar ko‘zga tashlanishi, qiyin vaziyatga tushgan odamlarni himoyasini ta’minalash, ularni insoniylik sharafini saqlab qolish, aynan murosayu-madora fazilati bilan bog‘liqligi uni ijtimoiy falsafa fani nuqtai nazaridan ham dolzarbligini belgilaydi. Murosa tushunchasi turli fanlar kategoriyalari va atamalari doirasida o‘z ta’rifiga egadir. Falsafiy kategoriya sifatida murosa o‘z mazmuniga ega bo‘lib, materianing ob’yektiv amal qilish shakli tarzida, ya’ni tushuncha holida ongda o‘z ifodasini topishiga ham e’tibor qaratiladi. Murosaga ta’riflar turlicha bo‘lib, barchasi mazkur tushunchaning ijtimoiy hamkorlik, tinchlik, osoyishtalik va hamjihatlikka chorlovchi tushuncha ekanligidan dalolat beradi[2;20].

Murosa ilmini shakllantirishda oila jamiyatning asosiy bir bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi. Oila – avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni, xalqimiz ma’naviy merosining avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlovchi bo‘g‘indir. Shuning uchun oilani qo‘llab-quvvatlash masalasi davlatimizning doimiy diqqat e’tiborida turibdi. Oila qancha mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham BMTning Bosh Assambleyasi 1993 yildan e’tiboran har yili 15 may kunini “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga qaror qilgan.

O‘zbekistonda oilani mustahkamlash masalasi, oilada tinchlik, do‘stlik, ahillik, murosayu madora muhitini yaratish davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi sifatida belgilab olingan. Oilada murosa masalasi er-xotin, qaynona-kelin, quda-andalar, farzandlar va ota-onalar orasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Oilada murosaviy muvozanatni saqlash adolat, tenglik, o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat tamoyillariga bog‘liqdir. Oiladagi murosa muhitini yaxshilash uchun sabr, shukronalik va rizo fazilatlarini shakllantirishning ahamiyati katta. Oilada tinchlik va osoyishtalik hukm sursa, oila bardavom va mustahkam bo‘ladi. Tursunoy Sodiqovaning “Murosa ilmi” nomli kitobida oilada murosa madaniyatini shakllantirishning chora-tadbirlari Hadislар sharhi asosida yoritilgan[9;112].

Mahallada aholining ahillik, osoyishtalik, tinchlik muhitida yashashi ularning murosayu madorasiga bog‘liq. Mazkur murosa muhitini yaratishda mahalla rahbari va aholi o‘rtasida, hamda qo‘shnilar o‘rtasidagi muloqot va muomala munosabatlarining madaniyatiga vobastadir. Alisher Navoiy o‘zining “Hayratul abror” asarida mahallani “mahalla shahar ichidagi shaharcha” [10;25]dir deb ta’riflaydi. Mahalla kichik ma’muriy hudud bo‘lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog‘langan kishilar jamoasi birligidir. Mahallada imkoniyatlari keng va ijtimoiy himoyaga muhtoj turli toifa, turli millat vakillari yashaydi. Ularning murosayu madorada yashashi jamiyatning barqarorligini ta’minlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Nashbandiylik ta’limoti ana shunday muhtojlar holidan xabar olib, ularga iqtisodiy yordam berish majburiyatini o‘ziga to‘q, badavlat insonlar mas’uldirlar [11;108], deb uqtiradi. Yangi taraqqiyot bosqichida faol mahalla tushunchasiga doimo e’tibor berilmoqda. Faollik faqat mahalla hududini, infratuzulmasini obod qilish emas, balki shu mahallada yashovchi aholini, keksayu yoshni jamiyatda faol bo‘lishi, yurtga nafi tegishi, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘sishi, xalqimizning osoyishta, tinch, murosayu madorada yashashiga mas’uliyat bilan yoshdashishi, bilimli va salohiyatli bo‘lishi demakdir. Har bir fuqaro o‘z mahallasi bilan faxrlanishi kerak. Bu borada Naqshbandiylik tariqati namoyandalari o‘zlarini ham ibrat bo‘lganlar. Ulardan Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy himoya va o‘z xalqini murosada saqlash uchun olib borgan faoliyati keyingi boblarda yoritilgan.

Korxona, muassasa, tashkilotlardagi murosa muhiti korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, mehnat unumdorligini ta’minlashning garovi bo‘lib xizmat qiladi. Jamoaning bir yoqadan bosh chiqarishi, maqsadlarining mushtarakligi, rahbar va xodimlar o‘rtasidagi, hamda xodimlar o‘zaro munosabatining halollik, poklik, o‘zaro hurmat va adolatga asoslanganligiga bog‘liq. Mehnat jamoasida murosa muhitini ta’minlash uchun kadrlarni joy-joyiga qo‘yish alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy hamkorlik falsafiy adabiyotlarda murosa falsafasi sifatida ta’riflangan. A. Sharipov o‘z tadqiqotlarida bu haqda shunday degan: “Inson manfaatlarini va barqaror taraqqiyotni ta’minalashda ijtimoiy hamjihatlik va hamkorlik tamoyillari benihoya yuksak ahamiyatga ega. Ko‘plab adabiyotlarda ijtimoiy hamkorlik tamoyili murosa falsafasi deb aytildi”[12;73].

Murosa jamiyatda barqarorlikni ta’minalaydigan qonunlardan biridir. Agar qaysi jamiyat a’zolari o‘zaro inoqliq, hamfikrlilik, uyushqoqlik barqaror hayot omili degan mulohazaga kelsa, bu jamiyatga nisbatan boshqalarda beixtiyor hurmat-ehtirom tuyg‘usi yuzaga keladi. Mabodo, jamiyatda o‘zaro kelishmaydigan, fikri va amali ayricha bo‘lgan – millati, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi boshqa bo‘lgan odamlarga nisbatan murosasiz munosabat bildirilsa, buning oqibatida insonlarda ishonchsizlik, begonalashuv holatlari vujudga keladi. Bu jamiyatning xalqaro nufuziga ham ta’sir etadi. Shu boisdan ham jamiyatdagi o‘zaro ahillik, inoqlik, ijtimoiy birdamlik hamisha dolzarb ijtimoiy-ma’naviy muammo bo‘lib kelgan. Murosa tushunchasi falsafiy dunyoqarash sifatida manfaatlarini, barqaror taraqqiyotni ta’minalashda ijtimoiy hamjihatlikning namunasi hisoblanadi.

Demak, murosa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashning omilidir. Barqarorlik va o‘zgaruvchanlik dialektik falsafaga xos tushunchalardir. Barqarorlik narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalasa, o‘zgaruvchanlik ularning ma’lum bir holatdan boshqa bir holatga o‘tish jarayonini bildiradi. Mazkur jarayon mutlaq xarakterga ega. Tayin narsalarga oid xossa sifatida esa u nisbiydir, chunki narsalarning o‘zgarishi biron-bir muayyanlikka nisbatangina sodir bo‘ladi. Dialektika barqarorlik va o‘zgarishni o‘zaro uzviy birlikda, mavjud dialektik qarama-qarshiliklar tarzida olib qaraydi[13;40]. Barqarorlikning muhim shartlaridan biri murosadir. Chunki, murosa – qarama-qarshi tomonlar ziddiyatlarining bartaraf etishidir.

Fikrimizcha, murosa falsafasi ijtimoiy hamkorlikdan ko‘ra kengroq mazmunga ega. Bu falsafa millat, din, irq, jinslararo, davlat va shaxs, davlatlararo munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham murosa eng oliv ne’mat bo‘lgan mamlakat tinchligining asosidir. Insoniyat hayoti davomida ezgu maqsadlarga yetish uchun doimo izlanadi va harakatda bo‘ladi. Ezgu maqsadli inson orzu-umidini amalga oshirishi uchun eng katta tayanch – tinchlik va osoyishtalikdir. Odatda, tinchlik so‘zi insonlar bilan murosa qilishni, ularni bezovta qilmaslikni, holatlarning tinch va osoyishta, urush-janjalsizligini, hayot va turmush tizimini bir me’yorda bo‘lishligini ifoda etadi[2;28].

El-yurtda tinchlik va osoyishtalik davom etsa, mamlakat taraqqiyoti, farovonligi, yurt ahlining turmushi obod bo‘ladi. Bularni aks ettiruvchi muqaddas qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz, dinimiz bevosita xotirjamlik silsilasiga uzviy bog‘liqdir. Insoniyat, dov-daraxt,

chorva-mol, qurt-qumursqaga havodek zarur bo‘layotgan tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalikdan ham ziyoda, mo‘tabar ne’mat yo‘q. Tinchlikka qarama-qarshi tushuncha urushdir. Bu borada O‘tkir Hoshimovning quyidagi fikri e’tiborga molikdir: “Urushning yaxshisi bo‘lmaydi. Ammo eng dahshatli urush-fuqarolar urushi. Negaki, u avloddan avlodga meros bo‘lib, abadiy davom etadi. Urush bilan besh kunda bitadigan muammo tinchlik bilan besh yilda bitsa, shunda hamki, ikkinchi yo‘lni tanlash kerak!”[14;12]. Bu fikrdan xulosa chiqadiki, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va ahillikni ta’minalash eng muhim masaladir. Murosa xalqimizning ulug‘ qadriyatlaridan biridir. Murosa iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy, ma’rifiy munosabatlarning asosini tashkil etadiganadolat, imkoniyat tengligi kabi qadriyatlar tizimidir.

Zamonaviy istilohlarda murosa so‘zining sinonimi sifatida kompromiss so‘zi qo‘llaniladi. Kompromiss deganda ikki yoki uch tomonning vaqtincha murosa holati tushuniladi. Kompromiss holatida tomonlar bir-birlarini toqat qiladilar, raqiblar bilan keskin ixtiloflardan ongli ravishda tiyilib turadilar. Ruhiy holatlarning o‘zgarishi nuqtai nazaridan qaraganda kompromiss holatida ziddiyatlar tashqari shakldan ichkari shaklga o‘tadi. Ichki zo‘riqish vaziyati muayyan muddatgacha o‘zini oshkor etmay turadi. Ammo biror-bir tomon uchun qulayroq ijtimoiy-siyosiy muhit yuzaga kelishi bilanoq, kompromiss holati oshkora ziddiyatga aylanib ketishi mumkin.

Demokratik rivojlanish jarayoni bizdan hatto raqiblar bilan ham kompromissiga erishishimizni taqozo etadi. Chunki:

1) Kompromiss yoki murosaga kelish – o‘zaro yon berishni ta’minalaydigan hatti-harakatlar strategiyasi;

2) Urushayotgan tomonlarning o‘zaro kelishuvlar asosidagi yon berishidir[16;100].

Hozirgi davrda murosa nizolarni hal qilishning yagona shakli emas. Agar tomonlardan biri dushmani yo‘q qilishni maqsad qilgan bo‘lsa, murosa qo‘llanilmaydi. Murosaga kelish tomonlardan o‘z manfaatlarini bilishi va ularni ochiqdan-ochiq amalga oshirishini talab qiladi.

Kompromiss holatini milliy mentalitet, axloq-odob, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘ziga xoslik ma’lum darajada jilovlab turadi. Shu narsa e’tiborga molikki, kompromiss holati muayyan ijtimoiy-siyosiy muhit, davr, ma’naviy-madaniy yondashuvlar o‘zgarishi bilan insoniy munosabatlardan chekinish holatlariga ham o‘tishi mumkin. Fikrimizcha, Naqshbandiya ta’limotidagi murosa tushunchasi kompromiss tushunchasiga nisbatan kengroq ma’noga ega. Chunki kompromissda tashqi ziddiyat ichki ziddiyatga aylansa, murosada tashqi va ichki ziddiyatlar uyg‘un holatda o‘z yechimini topadi. Kompromissda tinchlik va osoyishtalik vaqtinchalik bo‘lsa, murosada ahillik va xotirjamlik barqaror va bardavomdir.

Kompromiss va murosa masalasida G‘arb va Sharq mutafakkirlarining o‘ziga xos qarashlari mavjud. Bu qarashlarning farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. G‘arb mutafakkirlari (T.Gobbs, Djon Lokk, Z.Freyd) kompromiss oraliq muhit bo‘lib, tayanish va ishonch bilan hamkorlik qilish uchun mustahkam bo‘lmagan holat, ammo, jamiyat hayotida mohiyat e’tiboriga ko‘ra kompromiss holati kerakli hodisadir[15;96], deb hisoblaydilar. Markaziy Osiyo mutasavviflari, shuningdek, Xoja Ahror Valiy ulardan farqli ravishda murosayu-madora doimo jamiyat, insonlararo munosabatlar, oilada, chunonchi, tabiat, taqdir bilan ham murosaning zarurligini e’tirof etadilar. Biroq, Naqshbandiya ta’limoti vakillari, jumladan, Xoja Ahror Valiy ham faqatgina nafsga murosasiz bo‘lish kerakligi g‘oyasini ilgari surganlar[14;12].

2. G‘arb olimlari (G.Zimmel, R.Darendorf) murosa holatida har ikki tomon alohida-alohida rivojlanishga intiladi va ular orasida nosog‘lom raqobat muhiti amal qiladi[18;288], deb hisoblaganlar. Ammo murosa, ya’ni, kompromiss holatida kichik ishlar bir muncha jonlansada, katta ishlar rivoj topmaydi, shunga qaramay, kompromiss holati jamiyatda ma’lum muddatga bo‘lsa-da, muayyan turg‘unlikni, tinchlikni ta’minlab berilishi jihatidan ijobiy hodisadir. Mutasavviflar esa mazkur masalada Payg‘ambarimizning sunnatlariga amal qilganlar. Muhammad (s.a.v) tashqi tazyiqlarning siquviga ko‘ra, Makkadan Madinaga ko‘chib, hijrat qilgan chog‘larida “Kofirun” surasi nozil bo‘lgan. Shunga ko‘ra Makkadagi kofirlarga ushbu sura o‘qib eshittirilgan. Unga ko‘ra islomga tazyiq kiritish to‘xtalishi har bir qavm o‘z ilohi, o‘z e’tiqodi, dinida qolishi mumkinligi e’lon qilingan. Johillar mazkur sura mazmunidan voqif bo‘lishgach, payg‘ambarimiz joniga qasd qilish fikridan to‘xtab, Muhammadni ta’qib qilishni bas qilganlar, o‘z shahar va qishloqlariga qaytganlar. Xoja Ahror Valiy fe’lda, holda va so‘zda Payg‘ambar (s.a.v)ga ergashmoqni vasiyat qilganligidan kelib chiqib, barcha qarama-qarshiliklarning yechimini murosayu madorada, deb bilgan.

3. G‘arb olimlari murosa, albatta, kompromiss darajasida qolmasdan konsensus darajasiga ko‘tarilishi kerakligi g‘oyasini ilgari suradilar. Agar kompromiss tushunchasi uchun xarakterli so‘zlar jumlasiga toqat qilish, chidash, bir gapdan qolish, tiyilish, o‘z manfaatini o‘ylab ish tutish, qosh qo‘yaman deb ko‘zdan ayrilmaslikni o‘ylab harakatlanish, vaziyatni aql bilan baholab borish, raqib tomon harakatlaridan doimiy xushyor, sergak bo‘lib turish, muayyan chegarani saqlab turish singari so‘z va iboralar xos bo‘lsa, konsensus tushunchasini ifodalash uchun mehr, qalbiy va ruhiy yaqinlik, do‘slik, o‘zgalar manfaatlarini o‘ylab ish tutish, saxovat, muhabbat, qadrlash, boshqalarni o‘zidek bilish, fidoiylik singari so‘zlar xosdir. Fikrimizcha, murosa tushunchasi G‘arb olimlari qarashlaridagi konsensus g‘oyasiga uyg‘undir. Xoja Bahouddin Naqshbandning “Har kim o‘zgalarni xohlasa, o‘zini xohlabti, kimki o‘zini xohlabti,

bilsinki, o‘zini xohlamabti”, degan purhikmat so‘zlari ya’ni, kimki, o‘zi haqida qayg‘uribdi, demakki, u o‘zini o‘ylamabdi, kimki o‘zgalar haqida qayg‘uribdi, demakki, u o‘zini o‘ylabdi ma’nosini beradi va kompromiss hamda konsensus tushunchalarining farqini aynan ochib beradi.

ХУЛОСА

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib murosa jamiyat barqarorligi, mamlakat tinchligi, xalq osoyishtaligini ta’minlashning asosi, ziddiyatlar oldini olishning maqbul yo‘li sifatidagi insoniy fazilat bo‘lib, o‘zbek xalqining mentalitetiga xos, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan falsafiy tushuncha deb aytish mumkin.

Murosa G‘arb falsafasidagi kompromiss tushunchasidan kengroq ma’noga ega. Chunki, kompromissdan keyin tashqi ziddiyatlar ichki ziddiyatga aylanib, nizolarning xavfi saqlanadi. Murosa tushunchasi G‘arbdagi konsensus tushunchasi bilan uyg‘undir. Chunki bu jarayonda ziddiyatlar to‘la yechim topadi.

Tasavvuf, ayniqsa, Naqshbandiya ta’limoti insonning o‘zidagi, shaxslararo, oila, mahalla, mehnat jamoalari, shaxs va jamiyat, davlatlararo ziddiyatlarni hal etishning eng maqbul, me’yordagi yo‘llarni kashf etganlar. Naqshbandiya ta’limoti va uning namoyandalari shaxsiy, shaxslararo, oilaviy, ijtimoiy, diniy, siyosiy va boshqa ziddiyatlarni hal etishda maqbul uslublarni amalda qo‘llaganlar va Xoja Ahror Valiy tomonidan nazariy jihatlari rivojlantirilib, amaliy jihatlari ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ижтимоий сиёсий терминларнинг қисқача изоҳли луғати. Н.Махмудов таҳрири остида. – Тошкент: “Sahhof”, 2021. - 304 б.
2. Хайтов Ш. Муроса ва Ўзбекистон фалсафа тарихига кириш. - Тошкент: Фалсафа ва хукуқ институти, 2010. –Б.19.
3. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: “Маънавият”, 2008. – Б. 345.
4. Хуршид Даврон. Навоий армони. Самарқанд хаёли. Мақолалар, эсселар ва қиссалар. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/xurshid-davron-navoiy-armoni.html>
5. Абдулхолик Гиждувоний. Маслак ал-орифин. Инв.№80\167. Бухоро вилоят Ибн Сино номидаги кутубхонаси Шарқ бўлими, -Б. 88
6. Хожа Убайдуллоҳ Ахрор. Рисолаи Анфоси Нафийса./Табаррук рисолалар. /Нашрга тайёрловчи,: Маҳмуд Ҳасаний, Баҳриддин Умрзок, Ҳамидуллоҳ Амин. - Тошкент: Адолат, 2002. – Б. 39.

7. Хожа Убайдуллоҳ Ахрор. Фиқроти Ахрорийя. /Табаррук рисолалар /Нашрга тайёрловчи,: Маҳмуд Ҳасаний, Баҳриддин Умрзоқ, Ҳамидуллоҳ Амин. - Тошкент: Адолат, 2004. – Б. 70.
8. Рахматова X. Хожа Ахрори Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. – Тошкент: “ADIB”, 2014. – Б. 105.
9. Содиқова Т. Муроса илми. Ҳадислар талқини. 2-китоб. –Тошкент: “Faafur Fулом”, 2016, -Б.112.
10. Aliser Navoiy. Hayrat ul-abror (Dostonning ixcham nasriy bayoni). Dostonni qisqartirib bayon etuvchi A. Hojiahmedov. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2009, - B. 25
11. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия-камолот йўли. –Тошкент: “Фан”.2007. – 108 б.
12. Шарипов А.З. Инсон манфаатларини таминлаш ва ҳалқ билан мулоқот қилиш жараёнларида ижтимоий ҳамкорлик. // Имом Бухорий сабоқлари. – Самарқанд: 2017, №3, 73-б.
13. Имамалиева Р.М. Сиергетика – дунёга янгича қараш усули сифатида. //Синергетиканинг табиий-илмий ва фалсафий муаммолари: илмий-назарий семинар: (илмий мақолалар тўплами) / М.Н.Абдуллаева таҳрири остида. –Наманган: 2009. – Б. 40.
14. Raxmatova X.X. Xoja Ahror Valiy ma’naviy merosida murosa falsafasiga doir g‘oyalar tahlili. -Buxoro: Sadreddin Salim Buxoriy. 2023. –Б 12.
15. Черепанова, Е. С. Философия конфликта: [учеб. пособие] –Екатеринбург: 2016. – С.196.
16. Давлетчина С.Б. Словарь по конфликтологии. Издательство ВСГТУ, Улан-Удэ, 2005. - С 100.
17. Дарендорф Р. Современный социальный конфликт: Очерки политики свободы / Р. Дарендорф; пер. с нем. Л. Ю. Пантиной. – М.: РОССПЭН, 2002. – 288 с.
18. Sobirovich, T. B. (2021). Philosophical Dialectics of National and Universal Cultural Development. Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR).